

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Karyera

AT «Aloqabank» Kadrlar siyosati - xodimlarni boshqarishning uzoq muddatli strategiyasi bo'lib, uning asosiy maqsadi – tizimni malakali va zarur yo'nalishga ixtisoslashgan mutaxassislar bilan ta'minlash, mas'uliyatli, sadoqatli, malakali xodimlarni tarbiyalash, ularning faoliyatiga ko'mak beruvchi tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy shart-sharoitlarni yaratishdir.

Bank rahbariyati yuqori malakali kadrlarni tanlab olish va jipslashgan jamoani shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bank xodimlari bilan ishlashda quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- xodimlar ishini samarali tashkil etish, yuqori sifatli ish muhitini yaratish va barcha ish o'rinlarini malakali kadrlar bilan taminlash;
- motivasiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning bank ishiga qo'shgan hissasi va professionallik darajasiga mos ravishda lavozimlarini oshirish va rag'batlantirishni yo'lga qo'yish;
- xodimlarni qo'llab quvvatlash va professionallik darajasini oshirishda, shuningdek, lavozimlarni oshirish istiqbollari rejalashtirishda bank xodimlari faoliyatini baholashning zamonaviy usullarini qo'llash;
- yosh va umidli kadrlarga o'qish imkoniyatlarini yaratish va malakasini oshirish.

AT "Aloqabank"da ishlashning afzalliklari:

- Bankning innovatsiyalar uchun ochiqligi — har bir inson bank faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan o'z g'oyalarini yaratishi va taklif qilishi mumkin;
- Respublikamizning yirik banklaridan birida ishlash tajribasi;
- Banklarning davlat investitsion loyihalarini moliyalashtirishdagi rolini o'rganish imkoniyati;
- Xodimning salohiyatiga qarab lavozimida ko'tarilish istiqbollari;
- O'z malakasini nafaqat Respublikamizdagi o'quv markazlari va oliygohlarida oshirish, balki xorijiy mamlakatlarda ham tajriba almashish imkoniyati.